“NEFT VA UNING TARKIBI” MAVZUSINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING QO‘LLANILISHI

Umirova Nilufar Omonboevna - GulDU katta o‘qituvchi PhD,
Yusupov Boburjon Alievich - GulDU o‘qituvchi
Rabbimova Mahbuba Shotemir qizi - GulDU talaba


Barkamol avlodni tarbiyalashda innovatsion texnologiyalar asosida kimyo darslarini o‘qitishda elektron darsliklar yaratish, ularni o‘rta maktablarning ta’lim tizimiga qo‘llash o‘quvchilarni pedagogik mahoratini sakllantirishda yordam beradi [1].

Organik kimyoda “Neft va uning tarkibi” mavzusini uslubiy jihati mukammal bo‘lishida zaruriy ko‘rgazmalar va o‘qitish vositalaridan samarali foydalanish juda muhim. Mavzu bibliografik xarakterga ega bo‘lib, darslikdagi ma’lumotlar chegaralanishi darsni zerikarli holatga olib kelishi mumkin. Kimyodan o‘quv dasturining asosiy vazifasi o‘qituvchiga ayni fanning zaruriy tushunchalari va qonunlari asosida kimyoviy jarayonlarni boshqarish, zamonaviy usullar bilan yangi-yangi moddalar olish va ulardan nafaqat sanoat, qishloq xo‘jaligi miqyosida, shuningdek kundalik turmushda, oilada foydalanishning umumiy yo‘nalishlarini ko‘rsatib berishdan iborat bo‘lishi kerak [2].

Hozirgi kunda innovatsion texnologiyalardan foydalanib elektron versiya yaratish va ta’limda qo‘llash asosida bilim saviyasini ko‘tarish va dunyoqarashini kengaytirish usullarini takomillashtishga intildim va yangi tipdagi elektron versiyalardan foydalanish sistemasi ustida ishladik.

Organik kimyoda “Neft va uning tarkibi” mavzusini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan, ko‘rgazmalilikni, o‘qituvchidan ko‘p mehnat va vaqt talab qiladigan mavzularni har tomonlama samarali o‘zlashtirishga asoslangan animatsiyasini yaratish, o‘quvchilarning mustaqil bilim olishlarini yo‘lga qo‘yish hamda masofali o‘qitishni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadlardan kelib chiqib, animatsiya o‘quv fanining ma’lum bir mavzularini maqbul o‘rganish uchun yaratildi [3].

“Neft va uning tarkibi” mavzusini o‘qitishda neftning tarkibidan olinadigan moddalarning ko‘rinishi hamda neft haqida ma’lumotlar hosil qilish animatsiyasidan lavhasi 1-rasmda ko‘rsatilgan.



1-rasm. "Neft va uning tarkibi" mavzusini o'qitishda neftning tarkibidan olinadigan moddalarning hosil bo'lishi xaqidagi animatsiyasidan lavha.

Shu kabi barcha mavzular animatsion tarzda namoyish etish bilan birga, o'qituvchi tomonidan tushuntirib boriladi.

Kimyo o'quv fanidagi "Neft va uning tarkibi" mavzusi bo'yicha multimediali lavha yaratishdan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarning kimyo o'quv fani bo'yicha o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash;
- o'quvchilarning o'quv fanini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishini oshirish;
- o'quvchilarni kompyuter bilan muloqot qilishga o'rgatish va kompyuter savodxonligini oshirish;
- o'quvchilarning bilimini nazorat qilish va shu kabilardir.

Demak, "Neft va uning tarkibi" mavzusini o'qitishda zaruriy ko'rgazmalar va elektron ta'lim vositalaridan samarali foydalanish o'quvchilarning mustaqil bilim olishlarini yo'lga qo'yish hamda masofali o'qitishni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega [4].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ishmuxamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Tashkent. 2013 y.

2. Turobjonov S. M., Juraev V.N., Ziyadullaev O.E., Mirxamitova D.X. Neft-gaz kimyosi va fizikasi. Toshkent, Tafakkur bo'stoni. 2014 y.

3. Сафаева Р.З. Физик.о-химия нефти. «Физико-химические основы технологии переработка нефти». М: Химия, 1999.

4. Проскуряков В.А., Драбкин А.Е «Химия нефти и газа». - Л: Химия, 1995.